



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 28-oktabr, shanba,
128 (23.847)-son

**KUN
HIKMATI**

Zamonaviylik
libosga
qarab
belgilanmaydi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz




https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



QOZOG'ISTON PARLAMENTI MAJLISI YETAKCHISI SAMARQANDDA

**Mamlakatimizda tashrif bi-
lan bo'lib turgan Qozog'iston
Respublikasi Parlamenti Majlisi
Raisi Yerlan Koshanov 27-ok-
tabr kuni Samarqandga keldi.**

Samarqand xalqaro aeroportida mehmonni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddinjon Ismoilov va viloyat hokimligi mas'ullari kutib oldi.

Yerlan Koshanov Samarqand bilan tanishuvni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov qabrini ziyorat qilishdan boshladi. Mehmonga mazkur majmua va Hazrati Xizr masjidi haqida batafsil ma'lumot berildi.

Shundan so'ng, delegatsiya Amir Temur maqbarasi, Registon maydoni, Shohi Zinda yodgorligi, Mirzo Ulug'bek muzey-majmuasida bo'lib, yurtimiz tarixi, ilm-fani, madaniyatiga oid muhim manbalar bilan tanishdi.

KO'CHAT EKILGACH, PARVARISHLASH HAM MUHIM

Sayyoramizda iqlim o'zgarishi bir qator muammolarni yuzaga keltirdi. Bunda suv tanqisligi, tuproq eroziyasi, texnogen hodisalar ham yerdagi o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Buning oqibatlarini yumshatish, ta'sirini kamaytirishda yashillikni ko'paytirish, atmosfera havosini tozalash zarur. Shu bois ko'chat bir necha yildan buyon yurtimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi e'lon qilinib, ko'chat o'tqazish an'anaga aylandi.

Bu yil kuz faslida amalga oshirilishi belgilangan loyiha doirasida viloyatimizda 7 million tupga yaqin mevali va manzarali daraxt va buta ko'chatlari ekilishi belgilangan. Joylardagi bo'sh turgan maydonlarda iqlim sharoitimizga mos ko'chat ekish ishlari davom etmoqda. Xususan, Jomboy tumanida joriy yil bahor mavsumida 775,4 mingdan ortiq

ko'chat ekilgan bo'lsa, kuz mavsumida yana 469 ming tup daraxt ko'chatlari o'tqazilmoqda.

- Buning uchun tuman o'rmon xo'jaligida 1,5 million tup, So'xmon mahallasidagi ko'chatchilik xo'jaligida qariyb 2 million tup ko'chat tayyorlandi, - deydi tuman hokimligi bosh mutaxassisi Sherzod Suvonov. - Tayyorlangan



ko'chatlarning tuman ehtiyojidan ortgan qismi boshqa tumanlarga beriladi, bir qismi esa bahor mavsumi uchun zaxirada qoldiriladi.

Tajribali bog'bonlar, melioratorlar, tuproqshunos mutaxassislarning tavsiyasi asosida tuman iqlim, sharoitiga mos bo'lgan yapon soforasi, tut, tol, katalpa, kashtan, eman, shumtol, qayrag'och kabi manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekilmoqda.

Bundan tashqari, 25-oktabr kuni tumanning Dehqonobod massivida o'tkazilgan ko'chatchilik yarmarkasida bog'bonlarimiz tomonidan ko'chat baravj rivojlanishi uchun ekish texnologiyalari

bo'yicha ko'rgazmalar tashkil etildi. Yarmarka doirasida har bir mahallaga 200 tadan ko'chat tarqatildi. Hozirgacha tumandagi mahallalar, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, tibbiyot birlashmasi tomonidan 1,5 mingdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Fermer xo'jaliklari va klaster korxonalarini tasarrufidagi ariq bo'ylari, bo'sh turgan maydonlar va katta yo'l atrofida ko'chat ekish ishlari davom etmoqda. Ko'chatlarni ekish bilan birga nihollarni sug'orish, parvarishlash tizimini yaratish, payhon qilinishining oldini olishga e'tibor qaratyapmiz.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" – GAZETALARIGA 2024-YIL UCHUN OBUNA BO'LING!

BIZ:
· Samarqand hayotiga oid muhim xabar va yangiliklarni gazetalarimiz va internetdagi sahifalarimiz orqali birinchilardan bo'lib yoritamiz;
· ma'lumotlarni birinchi manbadan olib, sizga yetkazamiz;
· eng muhim, foydali ma'lumotlarni sizga ilinamiz.

OBUNANI TAHRIRIYATNING O'ZIDAN HAM RASMIYLASHTIRISHINGIZ MUMKIN!

Obuna bahosi O'TGAN YILGI NARXDA!

**"ZARAFSHON" gazetasi
(haftada uch marta) obunasi:**

· 640 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxona va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
· 768 ming so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).

**OBUNA –
2024**

**"САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК" gazetasi
(haftada ikki marta) obunasi:**

· 468 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxona va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
· 561 ming 600 so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).



Ilk bor suyak iligi ko'chirib o'tkazildi

Suyak iligi ko'chirib o'tkazish qon tizimi xastaliklari, tug'ma va orttirilgan immuntanqisligi, asab tizimining autoimmune xastaliklari, shuningdek, bolalar va kattalarda xavfli o'sma kasalliklarini davolashda samarali usul hisoblanadi. Shu paytgacha mazkur jarrohlik amaliyotiga muhtoj bo'lgan samarqandlik bemorlar poytaxt yoki xorijga borishga majbur edi. Yaqinda viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida mazkur murakkab jarrohlik amaliyoti bajarildi.

Bunga markazda puxta tayyorgarlik ko'rildi. Zarur jihozlar keltirildi, shifokorlar xorijlik hamkasblari bilan tajriba almasldi.

- Markazda o'n milliard so'm budget mablag'lari hisobidan immunogenetika, molekulyar va sitogenetik laboratoriyalar tashkil etildi, - deydi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bosh shifokori Lutfulla Mahmanov. - Mazkur laboratoriyalarning tashkil etilishi murakkab turdagi jarrohlik amaliyotlarini bajarish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Natijada onkologik gematopoetik o'zak hujayrasi transplantatsiyasi amaliyoti muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Markazimiz va poytaxtlik shifokorlar hamkorligida ilk marta o'tkazilgan ushbu operatsiya muvaffaqiyatli o'tdi. Muhim tomoni shundaki, bunda davlat xarajatlari ijtimoiy sug'urta orqali to'lab berilgani tufayli bemor bu amaliyot uchun sarf-xarajat qilmadi.

- Keyingi yillarda O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida katta o'zgarishlar bo'ldi, - deydi mazkur operatsiya jarayonida samarqandlik shifokorlar bilan hamkorlik qilgan, Anqara onkologiya ta'lim va tadqiqot shifoxonasi professori Feyzi Altuntash. - Ayniqsa, saraton xastaligini davolashda muhim yangiliklar ro'y berayotganiga guvoh bo'lmoqdami. Kimyoterapiya, nurerapiya, dori-darmonlar bilan davolash samarali yo'lga qo'yilaypti. Ilik ko'chirish operatsiyasi shu paytgacha Toshkentda amalga oshirilgan edi, endilikda bu jarrohlikning Samarqandda o'tkazilishi boshqa hududlarda ham tibbiyot rivojlantirishini anglatadi. Bu borada Toshkent va Samarqanddagi shifoxonalar bilan aloqalarni yo'lga qo'yganmiz.

Ayni paytda bemorning ahvoli yaxshi, u davo muolajalarini olmoqda.

SAYLOV TIZIMIDAGI O'ZGARISH

qanday tartib-taomillardan iborat?

Jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini hamda fuqarolarimizning siyosiy faolligini oshirish demokratik islohotlarning muhim bosqichi sanaladi. Shu bois ularning davlat hokimiyatini shakllantirishda muayyan g'oya va maqsadlarni ko'zlab ishtirok etishini ta'minlashda aralash saylov tizimini joriy etish taklifi anchadan buyon ilgari surib kelinmoqda. Oliy Majlis quyi palatasining bir guruh deputatlari tashabbusi bilan ayni shu masalada ishlab chiqilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi.



Viloyat hamda shahar, tuman Kengashlari kotibiyat mudirlari va deputatlar ishtirokida o'tkazilgan seminarlar mazkur yangilikning ahamiyati, mohiyati haqida so'z yuritildi. Xususan, ishtirokchilar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasi mazmuni bilan yaqindan tanishtirildi.

Hozirgi kunda amalda bo'lgan saylov qonunchiligimiz-

ga ko'ra, siyosiy partiyalar har bir saylov okrugi bo'yicha aniq nomzodni ilgari suradi hamda ularga okrugdagi saylovchilarning mutlaq ko'pchiligi yoqlab ovoz bergan taqdirdagina deputat etib saylanadi.

Jumladan, Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish uchun 150 ta saylov okrugi tuzilib, ularning har biridan bittadan deputat saylanadi.

(Davomi 2-sahifada) >>>



INDALLOSINI AYTGANDA...

**Shomirza
TURDIMOV,
filologiya fanlari doktori:**

**- Nima haqida ko'p gapir-
sangiz, o'sha narsaning
qadri ketadi. Ammo shu-
nisi aniqki, har qancha
gapirilishidan qat'i nazar,
ma'naviyatsiz, intellektsiz
millatni qutqarib bo'lmaydi.**

SAYLOV TIZIMIDAGI O'ZGARISH

qanday tartib-taomillardan iborat?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

MAVJUD TIZIM MUAMMOLARI

Amalda bo'lgan ushbu majori-tar saylov tizimida siyosiy partiyalar faoliyatini samarali rivojlantirish, ularni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining qudratli instrumentiga aylantirishga to'sqinlik qiluvchi qator konseptual muammolar mavjud.

Misol uchun, majoritar saylov tizimi "g'olib – barcha yutuq egasi" tamoyiliga asoslanganligi sabab saylovchilar xohish-istaklarining real holatini to'liq namoyon etmaydi. Bu partiyalarning, umuman, ko'pparti-yaviylik tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois ayni damda partiyalari-miz garchi qonun ijodkorligida tajribasi, ayrim hollarda bunga istagi yo'q bo'lsa-da, taniqli, shu hududda obro'-e'tiborga ega kishilarni nomzod qilib ko'rsatishga intiladi.

Oqibatda deputatlar ayrim hollarda parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatida faollik ko'rsatmasdan, asosan, o'zi-ning mahalliy, mintaqaviy manfaatlarini ifodalab keladi.

Tahillarga ko'ra, amaldagi mutlaq ko'pchilik (50 foiz + bir ovoz), ya'ni majoritar tizim moliyaviy nuqtai nazardan qimmat. Chunki ba'zida nomzodlar-ning hech biri saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozini ololmasligi mumkin. Bu esa takroriy ovoz berish jarayoni o'tkazilishini taqozo etadi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda o'tkazilgan parlament saylovida 150 ta okrugda o'tkazilgan saylovlar uchun davlat budjetidan 300 milliard so'm mablag' ajratilgan. Ulardan 25 tasida takroriy ovoz berish o'tkazilgan. Ikki hafta muddatdan so'ng tashkil qilinadigan ovoz berish jarayonlarining o'ziyoq yana ancha mablag', jismoniy kuch sarflanganini anglatib turibdi.

Bundan tashqari, deputatlar o'rni bo'shagan taqdirda, shu o'rinlarni to'ldirish maqsadida saylov komissiyalari faoliyatini tiklagan holda saylov o'tkazish zarur. Proporsional tizimda esa bunday hollarda navbatdagi nomzod deputatlik o'rnini egallashi mumkin.

UMUMAN, YANGI TIZIM QANAQA BO'LADI?

Proporsional saylov tizimida saylovchi deputatlikka nomzodga emas, balki siyosiy partiya ovoz beradi. Vakillik organidagi deputatlik o'rinlari esa siyosiy partiyalarga berilgan ovozlariga mutanosib ravishda siyosiy partiyalarning deputatlikka nomzodlar ro'yxatlari o'rtasida taqsimlanadi.

Majoritar va proporsional saylov tizimlarining yutuqlarini uyg'unlashtiruvchi va bir-birini to'ldiruvchi saylov tizimi — bu aralash saylov tizimi hisoblanadi. Bu majoritar saylov tizimi asosida muvaffaqiyat qozona olmagan partiyalarga o'zlari olgan ovozlariga mutanosib deputatlik o'rinlarini olishga hamda jamiyatda haqiqiy ko'ppartiaviylik tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.



– Qayd etilayotgan qonunda Saylov kodeksi hamda 7 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda, - deydi Markaziy saylov komissiyasi kotibi Xudoyor Mamatov. – Qonunchilik palatasi deputatlarining 50 foizi, ya'ni 75 nafari odatdagidek majoritar saylov tizimiga muvofiq bir mandatli saylov okruglaridan saylanishi, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi asosida yagona saylov okrugida partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar ro'yxati (partiya ro'yxati) bo'yicha saylanishi taklif etilmoqda.

Demak, endi saylovchi ikkita byulleten orqali ovoz beradi: birinchisida aniq bir nomzodga ovoz bersa, boshqasida o'zi ishongan partiyaning belgilaydi.

PARTIYALAR FAOLLASHADI

Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugiga bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozini olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo'ladi. Agar siyosiy partiya ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozini to'play olmasa, yagona saylov okrugiga bo'yicha yoki proporsional saylov tizimi bo'yicha ushbu siyosiy partiya qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlari taqsimlanmaydi.

Yetti foiz va undan ko'proq ovozni to'plagan siyosiy partiyalar o'zlari to'plagan ovozlar foiziga mutanosib ravishda deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritadi. Qayd etish lozim, har bir siyosiy partiya 75 nafardan 100 nafargacha nomzod ko'rsatishi mumkin.

YANGI TIZIM YANGILIKKA BOY

Agar partiya bo'yicha nomzodlar ushbu ro'yxatdan chiqarilsa yoki proporsional tizim asosida shakllantirilgan deputatlik o'rni bo'shab qolsa, ularning o'rni qanday to'ldiriladi, degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Bunday holatlarda bo'shab qolgan nomzod yoki deputat o'rni tegishli partiya ro'yxatidagi keyingi navbatdagi mandatga ega bo'lmagan nomzodlar hisobidan ro'yxat ketma-ketligi asosida to'ldiriladi.

Demak, partiyalar shakllantirayotgan ro'yxat ham muhim ahamiyatga ega. Qayd etish lozimki, proporsional saylov tizimi uchun shakllantirilgan partiya ro'yxatlarini keng jamoatchilik e'tiboriga o'lon qilish ham belgilangan.

Bundan tashqari, partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har uchta nomzodning bir nafari ayol kishi bo'lishi belgilanmoqda.

Qonun loyihasining 40(1)-mod-dasi partiya ro'yxati Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olinishi, ro'yxatga olish uchun tegishli hujjatlar ro'yxatga olish muddati tugashiga kamida yetti kun qolgunga qadar Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etilishi, partiya ro'yxatini belgilangan tartibda ro'yxatga olish saylovga o'ttiz besh kun qolganida tugallanishi, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi xabar besh kunlik muddatda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinishi, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan partiya ro'yxatiga kiritilganlar deputatlikka nomzod maqomini olishi va ularga guvohnoma berilishi to'g'risidagi qoidalarini o'z ichiga olgan.

BIR MANDATLIDA HAM O'ZGARISHLAR BOR

Amaldagi Saylov kodeksining 96-moddasida saylovda ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pining (50 foiz +1 yoki undan ko'p) ovozini olgan nomzod saylangan deb hisoblanishi belgilangan. Agarda, nomzodlarning birotasi ham ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pining ovozini to'play olmagan bo'lsa, eng ko'p ovoz to'plagan 2 nafar nomzod o'rtasida takroriy ovoz berish o'tkazilardi.

Saylov kodeksiga taklif etilayotgan normaga muvofiq, endilikda bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovozini (nisbiy ko'pchilik) olgan nomzod saylangan deb hisoblanadi. Bunda takroriy ovoz berish o'tkazilishiga hojat qolmaydi.

SAYLOV KOMISSIYASI HAM O'ZGARADI

Xudoyor Mamatov qonun loyihasida saylov komissiyalari vertikal tizimda tashkil etilishi belgilanganini ham aytib o'tdi. Qayd etilganidek, qonun loyihasi bilan Markaziy saylov komissiyasi, hududiy, tuman va shahar saylov komissiyalarining vakolatlari aniqlashtirilmoqda. Viloyatlar va Toshkent shahar saylov komissiyalari o'rnida hududiy saylov komissiyasi tashkil etiladi. Ular 5 yil davomida ham parlament va mahalliy Kengash saylovlarini, ham Prezident saylovi va referendumni o'tkazishda ishtirok etadi.

Shuningdek, qonun loyihasiga ko'ra, MSKning doimiy asosda ishlaydigan a'zolari soni 7 nafar o'rniga 9 nafar qilib belgilanayotgani qayd etildi. Hududiy saylov komissiyalarida esa ularning soni 3 nafar (ayni paytda 1 nafar) bo'lishi rejalashtirilgan.

Seminar davomida mahalliy Kengashlar deputatlari ham o'z fikr-mulohazalarini bildirdi, o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar oldi. Muhokamarlar davomida qonun loyihasini takomillashtirishga qaratilgan takliflar o'rtaga tashlandi.

Yoqub MARQAYEV.

"Zarafshon" gazetasining 2023-yil 19-oktabrdagi 124-sonida "Yangi O'zbekiston - yashil makonda birga yashaylik!" shiori ostida chop etilgan viloyat mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, xotin-qizlar va yoshlar vakillarining viloyat ahliga Murojaatini hayjon bilan o'qib chiqdim.

Biz ham kamarbastamiz

Bungacha respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida so'zlagan nutqida davrning dolzarb masalalari qatorida Markaziy Osiyoda tabiat-iqlim sharoiti o'zgarib borayotgani, bu esa insoniyat hayotiga tahdid solayotgan iqlim o'zgarishi, bio-xilma-xillik yo'qolishi va tevarak-atrof ifloslanishini bartaraf etish choralarini ko'rishni taqozo qilishi haqidagi taklif-mulohazalariga e'tibor qaratgan edim.

Mutaxassislarning fikricha, so'ngi paytda o'lkamizda havo harorati o'rtaacha bir yarim darajaga oshganligi nafaqat insonlar turmushiga, balki o'simlik va hayvonot dunyosiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday oqibatlarining oldini olishda davlatimiz rahbari tomonidan shu yil 11-oktabr kuni o'tkazilgan videosektor yig'ilishida 25-oktabrdan 1-dekabrgacha "Yashil makon" dasturi doirasida kuzgi daraxt ko'chatlarini ekish mavsumining e'lon qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki mahalla-qishloqlarimizning obodligi, hududlarning ko'kalamzorlashtirilganligi, mevali-manzarali daraxtlarning barq urib ko'karib turgani inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, odamlar kayfiyatini ko'taradi, umrini uzaytiradi. Shu bois biz, Past Darg'om tumanidagi "Olti Qahramon" mahalla fuqarolar yig'ini ahlil ham ushbu harakatni qo'llab-quvvatlab, qishlog'imizni obod qilishga kirishdik. Tuman hokimligi, qishloq va suv xo'jaligi, obodonlashtirish va yo'l qurilishi bo'limlari, mahalla raisi Hur-

matoy Buxorova, hokim yordamchisi Kumush Mamarahimova ko'magida Qo'lt'on qishlog'idan o'tgan kanalning bir kilometr atrofi tartibsiz o'sayotgan butalar va begona o'tlardan tozalandi, ichki yo'llar shag'allashtirildi. Mavjud daraxtlarga shakl berilib, hovlilarning devorlari va binolar oqlandi. Eslab ketgan simyog'ochlar "Go'zalkent elektr tarmoqlari" korxonasi tomonidan temir-beton tayanchlarga almashtirildi, ochiq elektr quvvati uzatish simlari o'rniga yopiq qobiqli kabellar tortildi, "Besh Qahramon" yodgorligi atrofi obodonlashtirildi.

Murojaatdagi har bir xonadon tomonidan 20 tup ko'chat ekish va o'stirish tashabbusini qo'llab-quvvatlagan holda hovlim tashqarisidagi yer maydoniga 22 tup yong'oq, gilos, tut va qoratal singari daraxt ko'chatlari ekdim. Yer maydonini shudgor qildirib, o't-o'lanlardan tozalab, daraxt va devorlarni oqlab qo'ydim.

Yurtimizni "Yashil makon"ga aylantirishda biz, nuroniylar ham kamarbastamiz.

Yo'ldosh SUYUNOV,
Past Darg'om tumanidagi Olti Qahramon mahallasi faoli.

BU
FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,5 foizni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 158,1 foizni va ishlab chiqarish hajmi 327,9 milliard so'mni tashkil etdi.

Tekin oshning badali bo'ladi

Har bir inson hayoti davomida bir qancha murakkabliklar, sinovlarga duch keladi. Ularni sabr-qanoat, halol mehnati bilan yengib o'tganlar muvaffaqiyatga erishadi. Aksincha, qiyinchiliklarga bardoshsizlar, uni "egri yo'l" bilan, boshqalarning hisobidan bartaraf etishga uringanlar esa doimo yutqazadi. Bu yo'l insonni boqimandalikka, tubanlikka boshlaydi.

Endigina 19 yoshga to'lgan xorazmlik Nazokatning (ismi o'zgartirilgan) talaba bo'lish orzusi ushaldi, u Samarqand shahridagi nufuzli oliy o'quv yurtiga o'qishga qabul qilindi. Bir muddat Samarqandda yashagach, ta'til kunlari uyiga ketishga qaror qildi. Ayni maqsadda 2023-yilning 15-may kuni yo'lovchi poyezdiga chipta sotib olish uchun Samarqand temir yo'l vokzaliga keldi.

Chiptaxona oldida navbatda turgan vaqti u asli xorazmlik maktab o'qituvchisi Guldona (ismi o'zgartirilgan) bilan tanishib qoladi. Guldona "Samarqand - Urganch" yo'nalishidagi yo'lovchi poyezdiga nafaqa guvohnomasi asosida imtiyozli narxda chipta sotib olmoqchi edi. U hujjatlari va bank kartasini chiptaxona xodimiga uzatib, birato'la uning kodini ham aytdi. Nazokat esa bu jarayonni zimdan kuzatib turgandi. Shu orada Guldona yetishmayotgan hujjatni avtoulovidan olib kelishi kerak bo'lib qoldi. Ammo u bank kartasini chiptaxona oynasi oldida unutil qoldirgan edi.

Nazokat vaziyatni boy berib, hamyurtdi bank kartasini olib qo'yd. Keyinchalik undan bankomat orqali dastlab 500 ming so'm, yana bir muddatdan keyin 1 million 700 ming so'm pulni naqdlashtirib oldi. Bu ham kamlik qildi shekilli, u hech narsadan tap tortmay, do'konda ham shu karta orqali savdo qilib, o'z ehtiyoji uchun narsalar ola boshladi.

Buzoqning yugurgani somonxonagacha, deydi dono xalqimiz. Guldonaning murojaatidan so'ng ichki ishlar xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor qidiruv tadbirida jinoyat izlari ham, Nazokat ham, u o'g'irlagan bank kartasi ham topildi.

Tergov harakatlari davomida Nazokat pulga muhtoj bo'lganini, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligini bildirdi.

Nazokatga belgilangan tartibda jazo chorasi tayinlandi. O'ylamizki, pul topishning oson yo'lini izlayotgan boshqalar bundan xulosa chiqaradi. Tekin oshning badali bo'lishini unutmang.

Sherzod SHODMONOV,
IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti tergov boshqarmasi o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchisi.

“ISHTIXONDA QISHDA “SVET” MUAMMO BO‘LMAYDI”

Ishtixon tumani elektr ta'minoti korxonasi tomonidan joriy kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida amalga oshirilgan ishlarni o'rganish maqsadida tashkil etilgan press-turda korxona rahbari Umarali Jo'rayev shunday bayonot berdi.

Ma'lumotga ko'ra, bugun Ishtixon tumani elektr ta'minoti korxonasi tasarrufida 4 ta nimstansiya bo'lib, tumanni elektr energiyasi bilan ta'minlovchi asosiy nimstansiya - "Ishonch" 110/35/10 kWda 1 ta 40 MW hamda 1 ta 25 MWli transformator mavjud. Kuz-qish mavsumi oldidan ushbu nimstansiya-dagi barcha texnikalar yangilanib, shay holatga keltirilgan.

– Bu yildagi eng katta yutug'imiz nimstansiya-dagi bitta 25 MWli transformatorning 40 MWligiga almashtirilgani bo'ldi, - deydi Umarali Jo'rayev. – Hisob-kitoblarga ko'ra, qish mavsumida tumanimiz uchun bir soatda 50 MWga yaqin elektr energiyasi zarur bo'ladi. Transformator quvvatining oshirilishi natijasida bizda yana 15 MW zaxira quvvat qoladi. Bu yilning sovuq kunlarida ham aholi uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlanadi, degani.

Elektr ta'minotidagi uzilishlarning yana bir omili – bu tizimdagi zo'riqliklar tufayli yuzaga keladigan avariya holatlaridir. Mas'ullarning ta'kidlashicha, ayni holatlar uchun tumanda 27 nafar xodimdan



iborat 5 ta tezkor brigada shakllantirilgan. Ular avariya holatlarini, murakkabligiga qarab, bir soat ichida bartaraf etadi. Ishdan chiqqan transformatorni almashtirish uchun zaxira transformatorlar hamda boshqa zarur texnik vositalar hozirlangan.

– Faoliyatimizda asosiy e'tiborni elektr energiyasini aholi xonadonigacha yo'qotishlarsiz yetkazib berishga qaratyapmiz, - deydi Umarali Jo'rayev. – Shu maqsadda havo elektr tarmoqlaridagi eski alyumin simlar maxsus himoya qobig'iga ega SIP kabellariga almashtirilmoqda. Bu yo'qotishlarni minimallashtirish, ya'ni, xonadonlarga borayotgan elektr energiyasi sifatini yanada yaxshilash imkonini beradi. Tumanga bu yil hisobidan jami 2150 dona

Faol mahallalar ko'paydi

Nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasi bugun yurtimiz aholisining keng qatlamiga yaxshi tanish. Hozirgi kunda fuqarolik jamiyati rivojida muhim o'rin tutadigan mazkur institut ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishga munosib hissa qo'shmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari eng chekka, olis hududlar hayotiga ham dadil kirib borayotgani, fuqarolarning turmush sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan das-turlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda mahalliy hokimiyat organlariga yaqindan ko'maklasha-yotgani diqqatga sazovor, albatta.

Aytish joizki, nodavlat notijorat tashkilotlarining takomillashuvini ta'minlashda mukammal qonunchilik bazasi shakllantirilgan. Keyingi yillarda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun va sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi demokratik institutlar rolini kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy vazifalarini hal etish, umuman olganda, mam-lakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mustahkam poydevorga aylanib bormoqda.

"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning kuchga kirishi davlat organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlari yan-gi pog'onaga ko'tardi. Qolaversa,

mazkur munosabatlarning yanada mustahkamlashga ko'maklashuv-chi yangi institutsional mexanizm shakllantirildi. Qonunning 18-mod-dasiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Tosh-kent shahar Kengashlari huzurida ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyalari tuzildi.

Mazkur komissiyalar nafaqat davlat organlari va nodavlat notijo-rat tashkilotlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahka-mlashda ko'mak ko'rsatmoqda, balki NNT, OAV va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi tomoni-dan e'lon qilinayotgan davlat granti tanlovlarida faol ishtirok etishi uchun amaliy yordam ko'rsatib kelmoqda.

Jumladan, joriy yil 20-senta-brdan 11-oktabrga qadar viloyat-imizning barcha shahar va tuman-larida Jamoat komissiyalari vakillari ko'magida "Hududlarda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ma-halliy davlat hokimiyati boshqaruv organlari bilan ijtimoiy sherikligini kuchaytirish" mavzusida turkum

seminarlar tashkil etildi. Bu tadbir-larda mingga yaqin davlat hokimi-yati va boshqaruvi organi vakillari, komissiya a'zolari, NNT, OAV va fuqarolik jamiyatining boshqa insti-tutlari qamrab olindi.

Tadbir mobaynida xalq depu-tatlari viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa insti-tutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan e'lon qilingan 4-davlat granti tanlovi to'g'risida ishtirokchilarga tushuntirish berildi.

Seminarlar yakuni bo'yicha ishtirokchilar tomonidan viloyat-imizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyo-siy—huquqiy va madaniy sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni yanada kuchaytirish hamda Oliy Majlis hamda xalq dep-utatlari viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fondlari tomonidan tash-kil etilayotgan qo'shimcha davlat ijtimoiy buyurtmasi, davlat granti tanlovlarining ustuvor yo'nalishi va mavzusi bo'yicha taklif va tavs-iyalar bildirildi. Xususan, ekoturizmni rivojlantirish, tarixiy yodgorliklarni targ'ib qilish, milliy xalq o'yinlarini ommalashtirish, OIIV/OITS virusi hamda "B", "S" gepatitining oldini olish kabi mavzular alohida qayd etildi.

Doston MALIKOV,
xalq deputatlari viloyat
Kengashi huzuridagi jamoat
fondi direktori.

SHIFOKORNING ZEB-ZIYNATI EMAS, MAHORATI MUHIM

Ma'naviyat - jamiyatning, odamlarning yashash tarzi, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyat va insoniy fazilatlarini mujas-samlashtiruvchi tushuncha.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning tafakkurini o'stir-masdan, ma'naviy dunyosini boyitmasdan turib, raqo-batbardosh, ma'naviy yetuk mutaxassislarni tayyorlash mushkul vazifa. Ma'lumki, umuminsoniy ma'naviy xislatlarga ega bo'lgan tibbiyot xodimlarini tayyorlash pedagog va murabbiylardan katta mas'uliyat talab qiladigan, uzoq davom etuvchi jarayon. Ta'lim jarayoni-da axloqiy poklikni o'zida shakllantirishda talabalarning o'zlari ham mas'uliyat his qilishlari uchun ustoz-murab-biylar ta'lim-tarbiyaning turli usullari orqali talabalarga ta'sir ko'rsatishlari juda muhim.

Dunyoda eng mas'uliyatli va sharaflil kasblardan biri – bu shifokorlikdir. Ma'naviyatli, madaniyat-li shifokor bo'lish oson ish emas. Bu kasb jasorat, fidoyilik, tafakkur sofigi va qalb tozaligini talab qiladi. O'z kasbini sevgan har bir shifokor odobli, oqil, olija-nob inson bo'lmog'i lozim.

Insondagi go'zallik tabiat ato qilgan husn-jamo-ldan tashqari, eng yaxshi xulq-atvorni, insoniy fazi-latlarni o'zida mujassamlashtirgan odamiylikdan ham iboratdir. Shifokor orasta, ozoda va tozalikka rioya qilishi shart. Egnidagi oq xalati va bosh kiyimi bemorda ishonch va yaxshi kayfiyat paydo qilishi kerak. Tibbiyot xodimi o'z vazifasini bajarayotgan paytda sun'iylik va yasan-tusanga zeb berishi kerak emas. Bemor shifokordan zebu ziynat emas, balki dardiga davo kutadi. Kiyinish ham madaniyatimizning bir bo'laki ekanligini unutishga haqqimiz yo'q. Inson o'z uyida qanday kiyinishi uning shaxsiy ishi, ammo ko'chaga qanday kiyim kiyib chiqishi bu ijtimoiy, ma'naviy masaladir. Donishmandlarimiz aytganlari-dek, "Kiyinish erkinligi – bu oliy qadriyat, biroq axloq doirasidan chetga chiqadigan har qanday erkinlik – ahloqsizlikdir".

Firdavs ORIPOV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
gistologiya kafedrasasi mudiri, professor.
Hayitboy BOYQO'ZIEV,
kafedra dotsenti.

Eksport salohiyatini oshirishda, mahalliy korxo-nalarimiz mahsulotlarini sotishi uchun qulay shart-sha-roitlar yaratish va imkoniyatlarni kengaytirish juda muhim. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-martdagi "Vakolatli organlarning meva-sabzavot-lar, to'qimachilik mahsulotlari va buyumlarini eksport qilish uchun zarur ruxsatnoma va sertifikatlarni ras-miylashtirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilingan. Shuningdek, 2020-yil 31-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risidagi ni-zomni tasdiqlash haqida"gi qarorda berilgan imti-yozlar ham eksport hajmi va salohiyatini oshirishga qaratilgan.

EKSPORTYOR korxonalarga imkoniyatlar ko'p

Qarorlar ijrosini ta'minlash uchun "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasi ("Uz-Test" DM) Samarqand filiali tomonidan ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, korxonalarga ISO va Global G.A.P xalqaro standartlarini joriy qilish va sertifikatlashtirish, moliyaviy yordam olish uchun viloyatimizdagi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab, eksport qilish bilan shug'ullanuvchi 16 ta korxonaning hujjatlar to'plami Eks-portni rag'batlantirish agentligiga kiritildi.

Bundan tashqari, viloyatimizdagi 9 ta ("Future Greyen Agri Development" MCHJ, "Bulungur Advange Trade" MCHJ, "Urgut Kamol Jamol" XK, "Daka Intex" MCHJ, "Habibulloh Mahsuloti" MCHJ, "Doniyev Servis Stii" MCHJ, "Chelak tomorqa xizmati" MCHJ, "Hay Shams Trade" MCHJ, "Dried Fruits Invest" MCHJ) oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi hamda tekstil mahsulotlarini eksport qiluvchi eksportyor korxonalarga qaror asosida 32 ta bepul muvofiqlik sertifikatini oshirishga berildi. Buning natijasida, tovarlar eksporti rasmilashga va xorijiy bozorlar-ga mahsulotlarimiz kirib borilishiga erishildi.

Jamshid DO'STQULOV,
"UzTest" DM Samarqand filiali byuro mutaxassisi.

Respublika Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, xalqaro ixtirochi, veterinariya fanlari doktori, professor, "Do'stlik" ordeni sohibi Ergashev Erkin Hamidovich hayot bo'lganida 90 yoshga to'lar edi.

Ta'lim fidoyisi

E.Ergashev 1933-yil-ning 1-noyabrida Samarqa-nd shahrida tavallud top-gan. 1948-yilda shahardagi 10-o'rta maktabni tamomlab, Samarqand davlat qishloq xo'jalik institutining veteri-nariya fakultetiga o'qishga kiradi va 1953-yilda ushbu dargohni imtiyozli diplom bilan tugatadi.

Yosh mutaxassisning ilmiy izlanishlarga qiziquvchanli-gi, talabalik davrida tadqiqot ishlarida faol ishtirok etganligi inobatga olinib, gelmintologiya ixtisosligi bo'yicha aspirantur-aga qabul qilinadi. 1956-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va O'zbekistonda xizmat ko'rsat-gan fan arbobi, professor N.Badanin rahbarlik qilayotgan parazitologiya kafedrasasi assis-tentligiga tayinlandi.

Yosh o'qituvchi shijoat-korligi tufayli qisqa fursat-da, ya'ni 1957-yilda mazkur kafedraning dotsentlik la-vozimiga saylandi. E.Erga-shevnin parazitolog olim bo'lib shakllanish davrida respublikamizda hayvonlarn-ing ko'pchilik gelmintlari aniqlanmagan yoki to'la o'rganilmagan edi. Ayniq-sa, ko'p turga mansub gel-mintlarning O'zbekistonda turli jug'rofiy mintaqalar

sharoitida o'ziga xos rivojla-nish xususiyatiga va pato-genez jarayoniga ega ekanligi haqidagi ilmiy ma'lumotlarn-ing yo'qligi, mazkur xo'jaliklar sharoitida samarali sog'lom-lashtirish chora-tadbirlari o'tkazishga imkon bermasdi. Chunki har xil mintaqalar sha-roitida gelmintozlar turlicha oqimga ega bo'lib, bu mua-mmo barcha olimlar va mu-taxassislar uchun ochilmagan qo'riqdek edi.

Olim o'zining keyingi ilmiy faoliyatini O'zbekistonning turli mintaqalari sharoitida gelmintlarning rivojlanishi, patogenezi va ekstens hamda intens tarqalish darajalari-ni yil mavsumlariga moslab tadqiq qildi. Shu maqsadda Sirdaryo, Buxoro, Qashqa-daryo, Samarqand viloyatla-rining turli xo'jaliklarida keng qamrovli tekshiruvlar o'tkazdi.

Ko'p yillik mashaqqatli va barakali ilmiy tadqiqot nati-jalari "O'zbekiston sharoitida mayda shoxli mollarning gel-mintoz kasalliklari" mavzusiga bag'ishlangan doktorlik disser-tatsiyasida o'z aksini topdi. Bu davrda E.Ergashev 31 yoshda edi. Oradan bir yil o'tgach, u o'z sohasi bo'yicha profes-sor unvoniga sazovor bo'ldi. 1968-yilda yosh professor O'zbekiston FA muxbir a'zoligi-



ga saylandi.

Olim ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 750 dan ortiq ilmiy ish, 15 ta darslik va monografiyalar yozdi. 185 ta tavsiyanoma va qo'llanma yaratdi, 42 nafar fan nomzodi va 8 nafar fan doktorlari bevo-sita u kishining ilmiy rahbarligi-da dissertatsiya himoya qildi.

E.Ergashev parazitologiya kafedrasida 40 yillik pedagogik va 30 yillik mudirlik faoliyatida o'qish va o'qitish usulini nihoyatda takomillashtirdi. U kishining faol tashkilotchi va tadbirkor rahbar ekanligini e'tirof etgan institut rahbari-yati 60-yillarda veterinariya fakulteti dekanini lavozimiga tayinlashdi. Keyinchalik aka-demik K.S.Skryabin nomidagi O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining direktori bo'ldi.

Akademik Erkin Ergashev ilm-fan fidoyisi, yirik olim va samimiy inson sifatida do'st-lari, hamkasblari, yaqinlari va shogirdlari qalbida mangu qolajak.

X. YUNUSOV,
biologiya fanlari doktori,
professor.
R.DAVLATOV,
veterinariya fanlari
doktori, professor.

Insonning qancha yashagani emas, qanday yashagani muhim, degan fikr bot-bot takrorlanadi. Har safar hamkasbimiz Saodat Sattorova haqida o'ylar ekan-man, shu gapning mazmuni yarq etib xayolimda jonlanadi. Garchi, juda erta olamdan o'tgan bo'lsa-da, hamkasblari, talabalari xotirasida juda samimiy, dilkash, barchaga birday yordam qo'lini cho'zadigan ayol sifatida qolib ketdi.

Surati, siyrati ziyo edi

Saodat Narzullayevna 1970-yil-da Samarqand shahrida tug'il-gan. Bolaligidan bilimga bo'lgan intilish, qat'iyatlilik va mehnat o'z samarasini berdi. 1992-yilda SamDU rus filologiyasi fakultetini muvaffaqiyatli tugatganidan so'ng Saodat Sattorova o'z faoliyatini kutubxonachi sifatida boshladi. Keyin maktabda, kollejda, litseyda o'qituvchi bo'lib ishladi. Saodat Narzullayevnaning onasi ham butun umri davomida maktabda ishlagan va qizining kasbiy faoli-yatida yo'l ko'rsatuvchi va murab-biy vazifasini o'tagan. 2019-yilda Saodat Narzullayevna Samarqand davlat chet tillar institutiga, til nazariyasi va adabiyotshunoslik kafedrasiga ishga kirdi (ke-yinchalik umrining oxirigacha rus tili va adabi-yoti kafedrasida ishladi).

Siz bilan qisqa vaqt birga bo'lgan, lekin ha-yotingizda o'chmas iz qoldirgan, xotirasi butun umr qalbingizda saqlanadigan odam haqida gapirish qiyin! Saodat Narzullayevna unutilishi qiyin va eslamaslikning imkoni yo'q bo'lgan odamlardan biri edi.

Mas'uliyat, mehnatsevarlik, sezgirlik, qati-yatlilik, talabchanlik - bu unga alohida maqom va joziba bag'ishlagan fazilatlar edi. Uning uchun halol va kamtar yashash shiorga aylandi. Bilim, tajriba, ma'naviy va moddiy boylikka ega bo'lsa-da, hech qachon o'z qadr-qimmatini namoyish qilmas, manaviy fazilatlarini, yetakchilik



qobiliyati bilan ko'plab tadbirlar-niing tashkilotchisi va tashabbus-koriga aylangandi.

Aqlii murabbiy sifatida u o'z ta-labalarni ijodiy va ilmiy izlanishlar-ga undash va yo'naltirishni bilardi. Kafedrada qisqa vaqt davomida (2019-2023-yillar) ishlaganiga qaramasdan, Saodat Narzulla-eyvna 100 dan ortiq ilmiy ishlar nashr etdi, ular orasida maqolalar va o'quv, metodik qo'llanmalar mavjud.

Men uning oiladagi o'rnini alohi-da ta'kidlashni istardim. U sadoqatli turmush o'rtoq va g'amxo'r ona si-fatida ikki o'g'il, bir qizni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Hatto ish jarayonining tig'izligiga qaramasdan, qarindoshlari va yaqinlariga etibor berish uchun ham vaqt topardi.

Tashqi ko'rinishidan qat'iy va talabchan bo'lsa-da, aslida yumshoq, samimiy, har qan-day holatda qo'llab-quvvatlab, yordam berishga tayyor inson edi.

Sattorova Saodat Narzullayevna hayot bo'lganida shu yilning 29-oktabrida 53 yoshga to'lgan bo'lardi. Afsuski, beshafqat o'lim uni bu hayotdan olib ketdi. Do'stimizning oxirati obod bo'lishini, yaxshi ishlari o'zi avaylab tarbiya qilgan farzandlari, shogirdlari ishlarida davom etishini istaymiz.

Go'zal UMUROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti rus
tili va adabiyoti kafedrasasi mudiri.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bi-lan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloiyevna notarial idorasida marhum Sali-yev Talat Sadullayevichga (2023-yil 11-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan me-rosoxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'la-tovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Ali-

sher Po'latovich notarial idorasida marhum Muradova Saloxatga (2018-yil 21-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan me-rosoxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'la-tovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak sha-harchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida mar-hum Shadiyev Samejon Abdulaxatovichga

(2023-yil 14-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yu-supova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Kurbanova Nasiba Abdulalimovnaga (2016-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu

munosabat bilan merosxo'rlarning Bahro-mova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahar hokimining qurilish, uy-joy va kommunal bo'limidan 2008-yil 15-mayda Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 53-"A" uy, 21-xonadon Berdi-ev Murodaliga tegishli ekanligini tasdiqlovchi 1016 raqamli davlat dalolatnomasining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi biologik kimyo kafedrasasi mudiri, dotsent Qahhor Xoliqovga onasi

Havo aya XOLIQOVAning

vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalari tahririyati jamoasi tahririyat faxriysi Nodira Negmatovaga o'g'li

Erkin NEGMATOVning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

GAZETA

KIMGA VA NIMA UCHUN KERAK?

1968-yilda birinchi maqolam chiqqan, 1975-yilda esa tahririyatga ishga kirganman. O'shandan buyon hayotim matbuot bilan bog'liq, ya'ni nasibam shu sohadan. Lekin aytmoqchi bo'lgan mulohazalarim "qo'ng'iz ham bolasini oppog'im deydi", naqlidan yiroq. Kamina shu sohadan non topayotganim uchungina emas, balki matbuotning hayotdagi kuch-qudratini ko'rganim, mohiyatini sezganim uchun ayrim fikrlarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Dunyoda juda ko'p mo'jizalar yaratilgan, lekin ular tasodifiy emas, xalqning ehtiyoji, iqtidorning zakovati tufayli yuzaga keladi. Muhimi, hayotimizning bir bo'lagiga aylanadi. Va bu mo'jizalar es-kirganini, yo'qolganini hayotiy tajribamda ko'rmaganman. Aytaylik, kitob, elektr chirog'i, radio, televideniye, telefon. Gazeta ham shularning ichida. Garchi ko'rinishi, shakli o'zgargani bilan ularning mohiyati, ahamiyati yo'qolgan emas. Binobarin, ularni yo'qotishga urinish ham nodonlik bilan barobar.

Gazeta, ya'ni bosma nashr mo'jiza sifatida hayotimizga kirib kelgan. Avvaliga reklama, keyinchalik esa yangiliklar va mulohazalar vositasi sifatida jamiyatni birlashtirishga xizmat qilgan. Va bugungi kunda ham ana shu vazifasini bajarib kelmoqda. Albatta, kimdir har qanday mo'jizadan o'z manfaati yo'lida foydalanishga harakat qiladi. Boshqacha aytganda, kitob chiqarib yoki chop etib boyib ketganlar, telefonidan qurol sifatida foydalanayotganlar, elektr quvvatini ham manfaatiga bo'ysundirayotganlar yo'q emas. Bir paytlar skanvord, reklamali gazetadan pul qilganlar ko'p edi. Bunday holat ilgari ham bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Shu sababli biz bir paytlar mo'jiza sifatida insoniyat taraqqiyoti-ga munosib hissa qo'shgan holatlarga baho berishda taroziga, albatta, adolat posangisini qo'ymog'imiz zarur.

Matbuot jamiyatning jarchisi bo'lib-gina qolmasdan, allomalarning biri aytganidek, xalqning fikrini mushtarak etuvchi, yoki buyuk jadid Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek, tilimizning sofligi uchun kurashuvchi hamdir. Matbuotga munosabatimizda uning barcha imkoniyatlarini va xizmatlarini hisobga olishi zarur.

Albatta, jamiyatning o'zgarishi, tizimning o'zgarishi undagi siyosiy kuchlarning, boshqaruv vositalarining, hatto ijtimoiy munosabatlarning ham ayrim jihatlarini o'zgartirishi tabiiy. Bunday paytda har kim ko'rpani o'ziga tortishi bor gap. Lekin biz ma'naviyatimizdagi qaysidir vositani almashtirmoqchi bo'lganimizda, nimanidir o'zgartirmoqchi bo'lganimizda uning o'rniga topgan narsamiz bizning ehtiyojlarimiz-



ni qondira oladimi, degan savolga ham javob topishimiz kerak.

Gazeta – hayotning aksi, tarix ifodasi. Yillar o'tib, biz undagi bitiklar orqali hayotimizni tahlil qilamiz, baho beramiz. Ayrimlar aytganidek, muayyan bir davrda gazetalarimiz faolligi susaygan bo'lsa, uni yo'qotish emas, balki jonlantirish yo'llarini qidiraylik. Chunki gazeta o'qimaslik eng avvalo, kishining (yoshi kattalarni nazarda tutyapman) savodini xiralashtiradi, mutolaa zavqidan bebahra qoldiradi. Gazeta o'qimagan odam real voqelikni emas, odamlar bilan, yaqinlari bilan ko'chadagi gaplarni muhokama qiladi va eng yomoni, ana shu odatga ko'nikib qoladi.

Gazetaning inson ruhiyatiga ta'siri shundaki, u ichki intizomni o'rgatadi, ya'ni har kim yozgan so'ziga, aytgan so'ziga javob beradi. Binobarin, bu gapni, bu yozuvni o'chirib ham, kuydirib ham bo'lmaydi - tarixda qoladi. Gazeta odamni mushohadaga o'rgatadi. Undagi maqolani o'qib, fikr bildirasiz, mulohazalaringizni yozasiz. Yashirib o'tirmayman, hozirgi kunda gazetaga qarshi chiqayotganlarning aksariyati o'zining munosabatini madaniyatli tarzda va tartib-taomili bilan ko'pchilikka namoyish qilmayapti. Chunki gazeta qo'pollikni, birovning nafsoniyatiga tegish, yolg'on axborot berish holatlarini hazz qilmaydi, odamlarni yuksak ma'naviyatga o'rgatadi.

Gazeta hech narsaga, hech qachon raqobatchi bo'lmagan: televideniye-ga ham, telefonga ham, internetga ham. Chunki uning vazifasini boshqa hech qaysi axborot vositasi bajara olmaydi.

Majburiy obuna haqida ko'p gapirildi. Ba'zan o'ylanib qolaman. O'qitu-

vchilarning malaka oshirishlari, ayrim kasb egalarini qayta tayyorlash, seminarnlar o'tkazish ixtiyoriy tarzda bo'lyap-timi? Unda nega biz odamlarni, uyush-magan aholining ma'naviyatini oshirish uchun qilayotgan sa'y-harakatimizni majburiy deb baholashimiz kerak? Qani, bu ishni kim ixtiyoriy qila oladi? Qaysi bir davlatda gazetalarda faqat kimnidir tanqid qilish yoki kam-chiliklarnigina ko'rsatish vazifasi qo'yil-gan?

Yana bir mulohaza: aynan majburiy obuna iborasini o'ylab topganlar, butun respublika bo'yicha aynan obunani uyushtirish uchun yuzlab MChJlar och-gani-yu tashkilotlarning, odamlarning qanchadan-qancha mablag'larini aldov yo'li bilan o'zlashtirib ketganliklarini ko'rmay turibmizmi? Agar obuna maj-buriy bo'lsa, bu holatga nima deysiz?

Bugun jamiyatdagi ma'naviy qu-surlar, qo'sh diplom bilan ham bir sahifa ma'lumotnomani eplab yoza olmayotgan mutaxassislar, fikrlarini birovlarga aytib yozdirayotgan rahbar-lar saviyasi muayyan miqdorda gazeta o'qimasligimizdan ham kelib chiqmoq-da. Chunki gazeta bizga munosabat bildirish malakasini o'rgatadi, savodi-mizni charxlaydi, dunyodan xabardor etadi. Shunday ekan, kamina bun-da yul sharaflari vazifa davlat himoyasida bo'lmog'i shart deb hisoblayman.

Juda ko'p mamlakatlarda davlat o'z nashrlarini o'zining hisobidan chiqarib, xalqqa tarqatadi. Chunki u ma'rifatli, dunyodan xabardor, davlat siyosatini biladigan fuqaro saviyasidan manfaat-dor. Jurnalist esa bu borada ana shu vazifaning ijodiy qismini bajaradigan erkin shaxsdir.

Davlatimiz rahbari Samarqanddagi uchrashuvlarning birida bugungi davr shiddati odamlardan yuksak ma'navi-yatli, bilimli, savodli bo'lishni talab qilayotganligini aytar ekan, endigi rah-bar o'z xodimlarida ana shu fazilatlarni ham shakllantirishi zarurligi talabini qo'ydi. Ya'ni, xodimlarni teatrga, kino-ga, konsertlarga olib borish, tashkilotda turli badiiy dastalarni tashkil etish - bu xodimlar madaniyati yuksaltirishga xiz-mat qilishini ta'kidladi. Ana shu o'rinda men gazetani ham qo'shishni istardim. Negaki, ijtimoiy faollikning manbai eng avvalo, kitob va kundalik gazeta-jurnal-lardir.

Xulosam shu: ma'naviy ehtiyojni pulga chaqish mumkin emas, tahriri-yatlarni davlat, azbaroyi, o'z siyosati-niing targ'ibotchisi sifatida yuz foiz qo'llab-quvvatlamog'i, ayniqsa, ziyoli qatlarning muntazam gazeta o'qishi uchun imkoniyat yaratmog'i zarur. Zamona zayli, davr talabi bilan har bir ijodiy jamoa va jurnalist o'zgarib boraveradi va shunday bo'lyapti ham.

Farmon TOSHYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Mulohaza uchun mavzu

JAMOAT mulkiga munosabat o'zgaradimi?

Tilimizda ko'p qo'llaniladigan "jamoat mulki" tushunchasi qonun-chiligimizda aks etmagan. Biz umumiy foydalanuvda bo'lgan davlat mulkiga shunday nisbat berishga o'rganganmiz. Bunday maqsad aholi orasida mazkur mulk shakliga nisbatan "egalik" tug'yusini shakllan-tirish va shu orqali ularni asrashda jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'lsa kerak. Biroq buni barcha his qilmayapti. Aksincha, jamiyati-mizda hamon jamoat mulkiga nisbatan befarqlik, undan ham yomoni, tajovuzkorona munosabat ustunlik qilmoqda.

Toptalgan yashil maydonchalar, shikastlan-gan daraxt va yoritkichlar, singan o'rindiqlar, chiqindixonaga aylantirilgan bekat va ko'cha-lar... Bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Achinarlisi, biz shunday manzaralarni har kuni va har yerda ko'rganimiz uchun buni odatiy holat sifatida qabul qilishga o'rganib boryapmiz. O'zimizniki bo'lmagan narsaga achinmaydigan bo'lib qoldik.

Aslida davlat mulki ham begonaniki emas. U xalqning puli evaziga keladi. Biz uni tasarruf etish huquqigina davlatga be-ramiz. Jamoat mulki tushunchasi esa davlat mulki tasnifiga ham unchalik to'g'ri kelmay-di. Izohda nima deyilgan: Davlat mulki - mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlar. O'ylab ko'rsak, davlat o'z vazifasini bajari-shi uchun jamoat mulklari unchalik muhim emas. Ular asosan xalqning manfaati, uning yaxshi yashashi uchun xizmat qiladi. Biz o'zimizga zarar yetkazuvchilarmiz.



*"Qo'rqinchli odamlar o'lkasi
Mana shu yo'laklarga shunday o'rindiqlar
kerak, deb Jomboy tumani rahbarlariga bir
necha marta taklif beruvdim.
Taklifni jo'yali hisoblashdi. Bir nechta
nuqtaga mustahkam va sifatli o'rindiqlar*

**Hikoya yozmoq
uchun nima kerak
deysizmi?
Insoniy did va
iste'dod kerak!**
Erkin A'ZAM.

Yangi kitob

Gul termog baxt Navoiy bo'stonidan

Badiiy ijod ixlosmand-lari Abdulla Nisoriyni adabiyotning aruz vaznida dilbar g'azallar yozuvchi ijodkor sifatida biladilar. Uning qalamiga man-sub "Sen tug'ilgan tong", "Xayolim gulga boylan-di", "Yorga maktub", "Bir dasta gul", "Yigit so'zi", "Ilohiy tong" "Chaqnasin ko'zdan oluv", "Chumo-li g'ilay ekan", "O'zbekim boshida qalpoq", "Kitob o'qigan bola" kitoblari, "Umr daftari", "Usta boboning hikoyalari" qissalari, "Lafzi o'zbek bol erur" tuyuqlar to'plami hamda "Uch yuz g'azal" devoni, "Ukraina manzaralari" poemasi o'z o'quvchi-larini topgan.

Yaqinda ijodkor o'zining Alisher Navoiy g'azal-lariga bog'langan 200 dan ortiq muxammaslarini to'plab, "Jon nisoring, Ey Navoiy" nomli kitob holi-da kitobxonlar hukmiga havola etildi.

Kitob Samarqanddagi "Fan bulog'i" nashriyoti-da chop etilgan. Kitobdagi o'ziga xos uslubda bitil-gan dilbar g'azallar she'riyat ixlosmandlarini befarq qoldirmaydi.



Zahmatsiz rohat yo'q

Hali kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishim-ni reja qilib ulgurmasimdan ikki qiz va bir o'g'liga suyanch bo'lib turgan otam og'ir xastalikka chalindi. Uning aytishicha, endigina tilim chiqqan paytdlarda katta bo'lsam, shifokor bo'lishimni ko'p bor aytgan ekanman. Otam mening shifokor bo'lishimni chin dildan istardi. Tezroq katta bo'lishni, shifokor bo'lib, otamning dardiga davo topishni xohlardim.



Ro'zg'or tebratish maktabgacha ta'lim tashkiloti-niing oddiy ishchisi bo'lgan onamning zimmasida qoldi. Men o'shanda 6-sinf o'quvchisi edim. Biz far-zandlariga non, to'shakda yotgan otamga dori-dar-mon topish ilinjida tinim bilmay mehnat qilayotgan onajonimga yordam bergim kelardi. Ammo qo'limdan bir ish kelmasligini bilib, faqat yig'lardim.

Ikki yil davomida otamga tibbiy yordam ko'rsatgan shifokor va hamshiralardan ko'p narsani o'rgandim. Qo'limdan kelgani xasta otamning dorilarini o'z vaqtida ichirib turish edi. Afsuski, hech qanday dori-darmon,

muolajalar foyda bermadi. Otam bizni tashlab ketdi. Shundagina kelajakda shifokor bo'lish, shifokor bo'lgandayam eng zo'ri bo'lishga chin dildan ahd qildim. Biroq yaqinlarim va tengdoshlarim bu fikrim-dan qaytishga undadi. Ular tibbiyot institutiga o'qish-ga kirish ballari juda yuqori bo'lishini, buning uchun esa kuchli repetitorlar qo'lida tayyorgarlik ko'rish kerakligini ta'kidladi.

Bir kuni tuman markaziga yaqin joyda yashovchi tog'am bilan yangam biznikiga mehmonga keldi. Uzoq suhbatlashdik. Dardlarimni tingladi. Shunda aynan

tog'amdan emas, yangamdan bir taklif o'rtaga tash-landi (aslida aksariyat hollarda tog'alarning shu kabi taklifiga yangalar qarshi bo'ladi). Ular meni o'z uylariga olib ketishi, o'qishga tayyorgarlik ko'rish uchun imkoni-yat yaratib berishini aytdi.

Yangam meni 2-sonli kasb-hunar maktabiga joylashtirdi va bir maktabda biologiya fanidan dars beruvchi oddiy muallima Dilfuza Nizomova bilan tanishtirib qo'ydi. Oilaviy sharoitim haqida eshitgan ustoz mendan hech qanday moddiy mablag' talab qilmasdan, o'qishga tayyorlashini aytdi va albatta, grant asosida aynan tibbiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishimga qat'iy ishonch bildirdi. Ustozning har bir darsida olgan bilimlarim menda-gi shifokorlikka bo'lgan ishonchni yanada orttirdi. Shuningdek, muallima shogirdlarini o'z farzandidek ko'rib, kiynishimiz, yurish-turishimiz, odob-axloqimiz-ga ham alohida e'tibor qaratardi.

Natijada shu yil maktabni bitirib, birinchi urinishda Qoraqalpog'iston tibbiyot institutiga davlat granti asosi-da talabalikka qabul qilindim. Bu - mening birinchi, eng katta muvaffaqiyatim. Buning uchun avvalo, ota-onam-dan, ustozlarimdan, tog'am, xususan, yangamdan juda-juda minnatdorman. To'g'ri, yutuqlarga erishish oson emas, ammo bugungi qiyinchiliklar ertaga o'z samarasini beradi, degan shior bilan olg'a intilyapman.

Shahzoda QARSHIBOYEVA,
Kattaqo'rg'on tumani.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 439 nusxada chop etildi. Buyurtma 586. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda